

## AHOLI BANDLIGI TA'MINLASH VA DAROMADLARINI KO'PAYTIRISHNING HUDUDIY IMKONIYATLARI

*Namangan davlat texnika universiteti  
Dadamirzayeva Zulayxo Ma'rufjon qizi  
Email: zulayxodadamirzayeva@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda, xususan, Namangan viloyatida aholi bandligini va ularning daromadlarini ko'paytirish borasida amalgalashirilayotgan islohotlarni ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritib berilgan. Aholi bandligini ta'minlashda hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator tavsiya va takliflar berilgan.

**Tayanch so'zlar:** tadbirkorlik, bandlik, resurslar, daromad, ishsizlik, tomorqa xo'jaliklari, klaster, eksport, oziq-ovqat mahsulotlari.

**Kirish.** Mamalakatimizda aholini ish bilan bandligini ta'minlash va shu asosida muntazam daromad olishlari maqsadida "Har bir oila—tadbirkor", "Yoshlar kelajagimiz", "Obod qishloq", "Obod mahalla" va tomorqani rivojlantirish kabi dasturlar qabul qilindi. Mazkur dasturlarni amalgalashirish uchun xususan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish doirasida davlat byudjetidan qariyib 10 trillion so'm imtiyozli kreditlar ajratildi. Bularni barchasi xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga o'z biznesini yo'lga qo'yishi uchun berilayotgan imkoniyatlarni dalilidir. Mazkur imtiyozlar orqali yoshlarimizda tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirilsa, ularga mablag'lardan to'g'ri foydalanishni o'rgatilsa, nafaqat iqtisodiy, balki ko'plab ijtimoiy muammolarni xam xal etilgan bo'ladi.

2020 yil 27 fevral kuni Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev raisligida tadbirkorlikni rivojlantirish va kasbga tayyorlash orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha videoselektorda ham bu masalaga alohida e'tibor qaratildi. "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissiyotini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak"-dedi Sh. Mirziyoyev.[1]

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasida ta'kidlaganidek, "Iqtisodiyotimiz rivojini, aholi bandligini va daromadlari o'sishini ta'minlaydigan eng muhim sohalardan biri bo'lgan qishloq xo'jaligini strategik yondashuvlar asosida taraqqiy ettirish zarur"[3].

**Asosiy qism.** Davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan shart-sharoitlar tufayli tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanish istagini bildirayotgan oilalar soni tobora ortib bormoqda.

Ularning asosiy qismi tadbirkorlikning u yoki bu turi, xususan, bog‘dorchilik, meva –sabzavotchilik, polizchilik, asalarichilik, chorvachilik, baliqchilik, hududlar xususiyatidan kelib chiqib hunarmandchilik, xizmat ko‘rsatish, servis va boshqa sohalar bilan shug‘ullanmoqdalar. Bundan ko‘rinib turibdiki, oilaviy tadbirkorlikni, jumladan, qishloq joylarida tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish aholi bandligini va shu asosida oilani qo‘sishma daromad olishini ta’minlaydi. Shuningdek, tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilgan maxsulotlar oilani o‘z extiyojlarini qondirish bilan birga mamlakat bozorlarini qishloq xo‘jalik maxsulotlari bilan to‘ldirib narxlar barqarorligi ta’minalashga xizmat qiladi. Eng muhimi uning, ma’naviy ahamiyati katta bo‘lib, oilani boqimandalik kayfiyatidan qutqaradi, tashabbuskorlikni, ishbilarmonlik va yaratuvchanlik tuyg‘usini uygotadi.

Mamlakatimizda barcha hududlari kabi Namangan viloyatida ham tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli chora-tadbirlar belgilanganligi tufayli oilalar tasarrufidagi yerlardan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Namangan viloyati 252,0 ming hektar sug‘oriladigon yer maydonlari bo‘lib, shundan 31,9 ming hektari aholi tomorqalarini tashkil etadi. Bugungi kunda asosiy e’tibor tomorqa yerlaridan samarali foydalanishga qaratilgan.

Tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish har bir hududni o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda Namanagan viloyati aholisining 60% ga yakini qishloq joylarida yashaydi. Shu tufayli qishloq ahonisini asosiy qismi tomorqa xo‘jaligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Viloyatning ko‘plab tumanlarida namunali tomorqa xo‘jaliklari tashkil etilgan oilalar soni tobora ko‘payib bormoqda. Jumladan, Norin tumanida 28414 ta xonadonda jami 2221 hektar shaxsiy va dala tomorqa yer maydoni bo‘lib, o‘tgan yili ana shu maydonlarning 150 hektariga kartoshka, 580 hektariga sabzavot (shundan 100 hektari pylonka ostida), 26 hektariga poliz, 43 hektariga g‘alla va 1422 hektariga boshqa ekinlar ekilgan. Shuningdek, tumanning 196 ta xonadonida issiqxonalar mavjud bo‘lib, ularda asosan limon, ko‘katlar va sabzavot ko‘chatlari, pomidor, bodring, qalampir, bulg‘or qalampiri va karam ko‘chatlari tayyorlanib, aholi tomorqalarini zarur miqdorda ko‘chat va urug‘lik bilan ta’minalashga amaliy yordam berib kelinmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tabiri bilan aytganda har bir qarich yerimiz tilloga teng. Faqat bizda tashabbus, sa’i-harakat, xafsala bo‘lsa bas. Tomorqalar bog‘-rog‘larga, to‘kinchilik manbaiga aylanadi. Dasturxonimiz to‘kin, turmishimiz bundanda farovon bo‘ladi. Darxaqiqat, bugun tomorqachilikni

rivojlantirish xalq farovonligini yanada oshirish mezonlaridan biriga aylanib bormoqda.

Aholi tomorqalarini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash maqsadida Namangan viloyati bank bo'limlari tomonidan fuqarolarga imtiyozli kredit mablag'lari ajratilmoqda. Jumladan, Xalq bankining 217 milliard so'm mablag'lari hisobidan 10 ming bosh qoramol, 26 ming bosh quy-echkini 23 mingta kam ta'minlangan oilalarga tarqatildi.

Viloyatdagi Agrobank, Mikrokreditbank, Aloqabank, Ipotekabank, O'zsanoat qurilishbanklari ham imtiyozli kreditlar bilan tomorqa xo'jaliklarini barqaror rivojlantirishga o'zlarini amaliy yordamlarini ko'rsatmoqdalar. Natijada tomorqa xo'jaliklarida yetishtrilayotgan qishloq xo'jaligi maxsulotlari miqdori tobora ko'payib bormoqda. Bu esa bozorlarda serobchilik bo'lishini va narxlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Namangan viloyati iqtisodiyotni rivojlantirish axoli bandligi va daromadlarini o'sishini ta'minlaydigan eng muxim sohalardan biri bo'lgan qishloq xo'jagini strategik yondashuvlar asosida rivojlantirish ob'yektiv zaruriyatga aylanib bormoqda. Chunki, viloyatda 111 ming kishi yoki 9,5% iqtisodiy faol aholi ishsiz. Shuningdek, 200 ming yoki 17% mehnat qilish istagi bo'lgan aholi xorijiy davlatlarga ish izlab chiqib ketgan. Bundan ko'rinish turibdiki viloyatda ishsizlik muammosi va uni hal etish dolzarb masalaga aylangan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

"Biz bir narsani to'g'ri tushunishimiz kerak: bitta ishsiz odam-o'nta muammo degani. Bu muammolar ishsiz odamning o'ziga, oilasi va mahallasiga, jamiyatga keltiradigan zararini hisoblasak, masalani naqadar jiddiy ekani yanada oydinlashadi[2].

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda Namangan viloyatida tomorqa yerlaridan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish orqali 1200 nafar yoshlar mavsumiy ishlarga jalg' etiladi. Shuningdek, "Har bir oila tadbirkor" hamda "Yoshlar kelajagimiz" dasturi doirasida sezilarli ishlar amalgalashirilmoqda. Aholini, ayniqsa yoshlarni tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularni o'z biznesini yulga qo'yish uchun katta imtiyozlar berilmoqda. Shular asosida yoshlarda tadbirkorlik tashabbusini rivojlantirilsa, ularga mablag'lardan to'g'ri foydalanishni o'rgatilsa nafaqat iqtisodiy balki ko'plab ijtimoiy muammolarni ham hal etilgan bo'lardi.

Biroq, viloyatning barcha tumanlarida xam tomorqa yerlaridan unumli foydalanyapti deb aytib bo'lmaydi. Viloyatdagi 60 ga yaqin axoli punktlaridagi tomorqalaridan foydalanish xolatini o'rganish natijasida 68% tomorqalar baxorgi ekin ekishga tayyor emasligini ko'rsatdi. Shuningdek, To'raqo'rg'on, Kosonsoy, Uchqo'rg'on, Chortoq, Yangiqo'rg'on tumanlarida aholi xonardonlarida issiqxonalar juda kamligi ma'lum bo'ldi. Yangiqo'rg'on, To'raqo'rg'on, Kosonsoy, Uchqo'rg'on, Chortoq tumanlarida tomorqalariga mevali daraxt va tok ekilmaganligi aniqlandi[3].

**Xulosa.** Umuman olganda, tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish aholini ish bilan bandligini va qo‘srimcha daromad topish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga kishilarni, xususan yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bular quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

*Birinchidan*, tomorqa xo‘jaliklari oila a’zolarining ish bilan bandligini ta’minlaydi va ularda mehnat hamda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, oilani qo‘srimcha daromad topish imkoniyatini kengaytiradi.

*Ikkinchidan*, oiladagi yoshlar foydali mehnat bilan shug‘ullanadilar va ro‘zg‘or ko‘makchisiga aylanadilar. Bu orqali yoshlarda tomorqa xo‘jaligini yuritish xaqida yetarli darajada malaka va ko‘nikmalar shakllanib boradi.

*Uchinchidan*, yoshlar ongida “pul qadri” degan tushuncha paydo bo‘lgan sari, ular o‘z vaqtlarini bekorchi narsalarga, jumladan ko‘cha-kuylarda bekor yurishga, internet klublari yoki boshqa ko‘ngilochar o‘yinlarga sarflamaydilar. Chunki, ular mehnat qilib topgan pulni tejab-tergab to‘g‘ri ishlatajalar.

*To‘rtinchidan*, tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish orqali bugungi kunda dolzarb muammolardan biriga aylanayotgan “yevropacha hayot”ga berilish, turli oqimlarga qo‘silib ketish kabi salbiy xolatlarning oldini olinadi. Natijada, yoshlarning milliy mentalitetimizga yot turli tahdidlardan himoya qilish, vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariiga sadoqat, mehnatsevarlik kabi millatimizga xos ruhda tarbiyalanadi. Bu esa, turli darajada ruy berishi mumkun bo‘lgan jinoyatlarni oldini olish imkoniyatini beradi.

*Beshinchidan*, hukumatimiz tomonidan fuqarolarga berilayotgan imtiyozli kreditlardan foydalananib, o‘z tadbirkorliklarini boshlayotganliklari tufayli aholini ish bilan bandligi ortmoqda. Bu esa xorij mamlakatlariga noqonuniy ish izlab ketuvchilar sonini kamaytirishga ijobjiy ta’sir etadi.

*Oltinchidan*, tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar aholini oziq-ovqat maxsulotlariga bo‘lgan extiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur mahsulotlar mamlakatimiz bozorlarini to‘kinligini va narx-navoning barqarorligini ta’minlaydi. Bu esa, iste’molchilar uchun tanlash imkoniyatini kengaytiradi. Bu jihatidan tomorqa egalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirilib, yanada sifatli, arzon va ko‘plab turdagи maxsulotlarni yetishtirishga xizmat qiladi.

*Yettinchidan*, o‘zbekona odatlarimizga ko‘ra tomorqada yetishtirilgan hosilini avvalini yoshi ulug‘ qariyalarga, qo‘ni-qo‘snilarga, kam ta’minlangan oilalarga, yakka-yolg‘izlarga tarqatiladi. Bu esa, kishilar o‘rtasida mehr-muruvvatni, insonparvarlik tuyg‘ularni kuchayishiga olib keladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, aholi daromadlarini ko‘payishida va shu asosida ularning turmush faravonligini yuksalishida tomorqa xo‘jaliklarining ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa, tomorqa xo‘jaliklarini yanada

rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarishni uzlusiz ko‘paytirib borish uchun yetarli imkoniyat va shart-sharoit yaratishni taqozo etadi.

Fikrimizcha, buning uchun quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1.Hukumat tomonidan tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish borasida qabul qilingan me’yoriy, xuquqiy qonunlarni joylarda ijrosini ta’minalashni hokimliklar tomonidan qat’iy nazorat qilib borish.

2.Tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilgan maxsulotlarni sotish uchun shart-sharoitlar yaratish, kerak bo‘lsa ularning maxsulotlarini sotib oluvchi savdo shaxobchalarini tashkil etish.

3. Tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilgan maxsulotlarni qayta ishlaydigan kichik sanoat korxonalirini maxsulotni saqlaydigan omborxonalar va sovutgichlarni tashkil etish.

4.Tomorqalarda parvarishlanadigan o‘simpliklarni zararkunandalardan, turli kasallikkordan himoya qiladigan kimyoviy vositalar sotiladigan do‘konlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularni muntazam ishlashini ta’minalash. Shuningdek, tomorqa sohiblariga sara urug‘lar va serhosil ko‘chat navlarini sotadigan hamda yetkazib beradigan shaxobchalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

5. Aholi xonadonlarida boqiladigan chorva mollari uchun shrot va sheluxa maxsulotlarini sotishga ixtisoslashtirilgan shaxobchalar faoliyatini kengaytirish va naslchilikni yaxshilab borish.

Fikrimiz yakunida shuni ta’kidlash kerakki, tomorqa xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish va buning uchun tegishli imkoniyatlarni yaratib berish orqali mehnat qilgan kishining oila iqtisodiyoti baquvvat, ro‘zg‘ori but, dasturxonni barakali bo‘lishiga va mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o’sishga hamda aholining hayot darajasi sifatini yanada yuksaltirishga erishiladi. Shuningdek, millat qadriyatlarini anglaydigan, zamonaviy fikrlaydigan, faol fuqarolik pozisiyasiga ega bo‘lgan yoshlarni yetuk shaxs sifatida shakllantirish imkoniyatini beradi. Chunki, shaxs ma’naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e’tiqodiga aloqador ko‘nikmalar asosan oilada shakllanadi. Shu nuqtai nazardan olganda tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish davr talabidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. ”Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 25-yanvar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 27-fevral kuni tadbirdorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. ”Xalq so‘zi” 2020 yil 28 fevral

3. ”Namanganning mehnatkash, faol, ilmlli halqi yaxshi yashashga munosib”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 iyundagi Namangan viloyati faollari bilan uchrashuvdagagi ma’ruzasi. ”Namangan haqiqati” gazetasi 2020 yil 1 iyul.

4. Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma’lumotlari.